



UNIVERSITÄT
HOHENHEIM



**EKOLOGIYA,
ATROF MUHITNI ASRASH VA
YASHIL MAKON: MUAMMO,
YECHIMLAR VA NATIJALAR
MAVZUSIDAGI XALQARO
ILMIY-TEXNIK ANJUMAN**

TO'PLAMI

QARSHI 2025

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI



QARSHI DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

“EKOLOGIYA, ATROF MUHITNI ASRASH VA
YASHIL MAKON: MUAMMO, YECHIMLAR VA
NATIJALAR”

MAVZUSIDA XALQARO ILMIY-AMALIY
ANJUMANI MATERIALLARI
TO‘PLAMI

2025-yil 30-31 may

Qarshi-2025

QASHQADARYO VILOYATIDAGI LALMI YERLARNING MAVJUD HOLATI

Shogʻdarov D.D. - Qarshi davlat texnika universiteti oʻqituvchisi

Bobojonov N.Sh. - Qarshi davlat texnika universiteti talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Qashqadaryo viloyatidagi lalmi yerlarning 2016–2024-yillar oraligʻidagi holati tahlil qilingan. Statistik maʼlumotlarga asoslanib, viloyat tumanlarida lalmi yerlar maydonining oʻzgarish dinamikasi oʻrganilgan. Xususan, Gʻuzor, Dehqonobod, Chiroqchi, Koʻkdala, va Qamashi tumanlarida lalmi yerlar maydonining barqarorligi yoki oʻzgarishi aniqlangan. Tadqiqotda, shuningdek, lalmi yerlarning qishloq xoʻjaligida tutgan oʻrni, ularni samarali boshqarish va monitoring qilish zarurati keltirilgan. Innovatsion texnologiyalarni qoʻllash orqali lalmi yerlar monitoringini takomillashtirish imkoniyatlari koʻrib chiqilgan.

Kalit soʻzlar. Lalmi yer, rainfed, kadastr, gektar, boʻz yer, yaylov, pichanzorlar, meliorativ.

Lalmi yer tushunchasi turli tillarda turlicha atamalarda ishlatilib, ingliz tilida “Rainfed”-yomgʻirli dala, rus tilida “богарные поля, богарное земледелие”-lalmi maydonlar/yerlar, lalmi dehqonchilik kabi tushunchalarni bildirib, qishloq xoʻjaligi mahsulotlari yetishtiriladigan hududlardagi ekinlar doimiy suv manbaiga ega boʻlmagan, sunʼiy sugʻorilmaydigan yerlarni anglatadi.

Mamlakatimizda esa lalmi yer tushunchasiga bir qancha adabiyotlarda taʼriflar berilgan boʻlib, “Qomus.info” onlayn ensiklopediyasida lalmikor yerlar, bahorikor yerlar adir zonasidagi sugʻorilmay dehqonchilik qilinadigan yerlar boʻlib, lalmi dehqonchilik oʻrtacha yillik yogʻingarchilik 200 mm dan yuqori boʻlgan hududlarda tarqalgan, deya taʼrif berilgan boʻlsa, vikipediya ochiq ensiklopediyasida lalmikor yerlar, bahorikor yerlar - adir zonasidagi sugʻorilmay dehqonchilik qilinadigan yerlar deya taʼrif berilgan.

Mamlakatimiz hududi boy tabiiy landshaftlarga, yer usti boyliklari va katta foydalanish imkoniyati bor resurslarga ega. Oʻzbekiston Respublikasining umumiy yer maydoni 44 mln 892 ming gektar boʻlib, 2 mln 128 ming 604 ta konturlardan iboratdir. Umumiy maydonning 21 mln 118 ming gektar (47 %) yaylov va pichanzorlar, 14 mln 862 ming 400 gektar (33 %) qishloq xoʻjaligida foydalanilmaydigan boshqa yerlar, 4 mln 33 ming 500 gektar (8,9 %) sugʻoriladigan ekin yerlar, lalmi ekin yermaydonlari 783 ming 500 gektar, 3 mln 433 ming 900 gektar (7,6 %) oʻrmon fondi yerlar, 733 ming 200 gektar (1,6 %) tomorqa yerlar, 403 ming 800 gektar (0,9 %) koʻp yillik daraxtzorlar, 83 ming 700 gektar (0,2 %) boʻz yerlar, 68 ming 900 gektar (0,2 %) meliorativ qurilish holatidagi yerlar va 155 ming gektar (0,3 %) butazor yer maydonlaridan iborat.

Oʻzbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi “Kadastr agentligi”ning Davlat kadastrlari palatasi Qashqadaryo viloyati boshqarmasi maʼlumotlariga koʻra 2024 yil 1 yanvar holati boʻyicha Qashqadaryo viloyatining umumiy yer fondi 2 856 799 gektarni tashkil etadi. Ushbu yer maydonlari foydalanish maqsadlariga qarab quyidagi yer toifalariga boʻlingan. (1-jadval)

1-jadval.

**Qashqadaryo viloyati yer fondini yer toifalari bo'yicha taqsimlanishi
(2024 yil 01.01. holatiga)***

T.r	Yer fondi toifalari	Maydoni	
		Ming ga	%
1	Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar	2339753	81,9
2	Aholi punktlari yerlari	12427	0,43
3	Sanoat, taransport, aloqa, mudofaf va boshqa maqsadlarga mo'ljallangan yerlar	69304	2,42
4	Tabiatni muxofaza qilish, sog'lomlashtirish va rekreasiya maqsadlari uchun mo'ljallangan yerlar	75134	2,6
5	Tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar	2567	0,09
6	O'rmon fondi yerlari	316706	11,1
7	Suv fondi yerlari	37090	1,3
8	Zahira yerlar	3819	0,13
Jami		2856800	100

** Davlat kadastrlar palatasi Qashqadaryo viloyati boshqarmasi*

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinadiki, viloyat umumiy yer maydonlarining 81,9 % qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar tashkil etadi. Darhaqiqat, viloyat iqtisodiyotining asosiy qismini ham aynan qishloq xo'jaligi tashkil etadi.

2-jadval.

Qashqadaryo viloyati jami yerlarining asosiy yer turlari bo'yicha taqsimlanishi (2024 yil 01.01. holatiga)*

T.r	Asosiy yer turlari	Umumiy yer maydoni, ming ga	Shundan	
			Sug'oriladigan	Sug'orilmaydigan
1	Ekin yerlari	675 293	417 345	257 948
2	Ko'p yillik daraxtzorlar	38896	36 692	2204
3	Bo'z yerlar	21900	4 591	17 309
4	Yaylov va pichanzorlar	1 405 201	111	1405090
	Jami qishloq xo'jalik yerlari	2 141 290	458 739	1 682 551
5	Tomorqa yerlari va bog'dorchilik-sabzavotchilik uyushmalari yerlari	80 455	48 779	31 676
6	Meliorativ qurilish holatidagi yerlar	18 748	18748	-
7	O'rmonlar	164 248	5 967	158 281
8	Boshqa yerlar	452058	452 058	-
	Jami	2 856 799	513 485	2 343 314

** Viloyat yer resurslari va davlat kadastri boshqarmasi ma'lumotlari*

Qashqadaryo viloyati hududida qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanishning mavjud holatini o'rganish shuni ko'rsatadiki, viloyatdagi foydalanilayotgan qishloq xo'jaligi yerlarining 257948 gektarini lalmi ekin yer maydonlari tashkil etadi (3-jadval).


Tadqiqot davrida olingan ma'lumotlar bo'yicha tahlil qilingan natijalar quyidagi 2016-2024 yillarda lalmi yer maydonlari viloyat bo'yicha 723 gektarga kamayganini, G'uzor tumanida 30 ga, Dehqonobodda 135 ga, Qamashida 16 ga,

Qarshi tumanida 27 ga, Kitobda 237 ga, Kosonda 1 ga, Chiroqchida 74412 ga, Shahrisabzda 62 ga, Yakkabog‘da 106 gektarga kamayganligini, Mirishkor tumanida yer toifasi o‘zgarib lalmi yerlarga 10 ga ajratilganligini, 2022 yilning 17 martida Chiroqchi tumani hududini ikkiga bo‘lish orqali Ko‘kdala tumani tashkil etildi va tumanning lalmi yer maydoni 74292 gektarni tashkil etdi.

3-jadval.

Qashqadaryo viloyati lalmi ekin yer maydonlarining taqsimlanishi

№	Tumanlar	2016 yil	2017 yil	2018 yil	2019 yil	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2024 yil	2024 yilda 2016 yilga nisbatan, +/-
1	G‘uzor	30364	30359	30357	30349	30349	30348	30347	30347	30334	-30
2	Dehqonobod	42697	42697	42693	42693	42693	42693	42573	42562	42562	-135
3	Qamashi	34865	34865	34864	34865	34859	34857	34857	34852	34849	-16
4	Qarshi t	3119	3118	3115	3137	3107	3107	3107	3106	3092	-27
5	Qarshsh	31	31	31	31	31	31	31	31	31	0
6	Kitob	12113	12069	12029	11977	11947	11947	11947	11946	11876	-237
7	Koson	11883	11883	11883	11884	11883	11884	11884	11885	11884	-1
8	Muborak	1980	1980	1980	1980	1980	1980	1980	1980	1980	0
9	Mirishkor	0								10	10
10	Chiroqchi	100307	100307	100296	100291	100288	100287	100287	25895	25895	-74412
11	Shahrisabz	6962	6962	6962	6962	6935	6935	6935	6936	6900	-62
12	Yakkabog‘	14350	14350	14350	14543	14350	14350	14350	14351	14244	-106
13	Ko‘kdala	0							74299	74292	74292
	Jami:	258671	258621	258560	258712	258422	258419	258298	258190	257948	-723




1-rasm. Viloyat lalmi yerlarining yillar kesimida taqsimlanishi.

Yuqoridagi ma‘lumotlar bo‘yicha kamaygan lalmi yer maydonlarini o‘zgarish sabablari tahlil qilinib chiqildi va bularga bir necha omillar ta‘sir

etganligi aniqlandi. Misol uchun, tumanlarda yer tuzish tadbirlarini amalga oshirish natijasida lalmi yer maydonlariga irrigasiya tarmoqlarini tortish evaziga suvli maydon hosil qilish shuningdek, lalmi yerlar yaylov va bo‘z yerlar toifasiga o‘tganligi bularga misol bo‘la oladi.

Qashqadaryo viloyatida o‘tkazilgan monitoring asosida aniqlangan ma’lumotlarni ko‘rib o‘tadigan bo‘lsak, lalmi yerlar maydoni 2024 yilda 257948 gektarni, yani bu umumiy respublikamizdagi lalmi yerlar maydoniga nisbatan 33% ni tashkil etmoqda.



2-rasm. Qashqadaryo viloyatidagi lalmikor yerlar va ularning tumanlar bo‘yicha taqsimlanishi. (2024 yil)

Olib borilgan tadqiqot ishlari shuni ko‘rsatadiki, Qashqadaryo viloyatida lalmikor yerlar taqsimlanishi bo‘yicha eng katta hudud Ko‘kdala tumaniga to‘g‘ri keladi, 74292 gektarni tashkil etadi va viloyat miqyosida lalmi yerlar ulushi 29 % ni tashkil etadi. Undan keyingi o‘rinlarda Dehqonobod tumani 42562 gektarni tashkil etadi va viloyat miqyosida lalmi yerlar ulushi 16% ni, Qamashi tumani 34849 gektarni tashkil etadi, viloyat miqyosida ulushi 13% ni, G‘uzor tumani 30334 gektarni tashkil etadi va viloyatdagi ulushi 12% ni, Chiroqchi tumani 25895 gektarni tashkil etadi va viloyatdagi ulushi 10% ni, Yakkabog‘ tumani 14244 gektarni tashkil etadi va viloyatdagi ulushi 5 % ni, Koson tumani 11884 gektarni tashkil etadi va viloyatdagi ulushi 4,6 % ni, Kitob tumani 11876 gektarni tashkil etadi va viloyatdagi ulushi 4,6 % ni, Shahrizabz tumani 6900 gektarni tashkil etadi va viloyat miqyosida lalmi yerlar ulushi 3% ni, Qarshi tumani 3092 gektarni tashkil etadi va viloyat miqyosida lalmi yerlar ulushi 1 % ni, Muborak tumani 1980 gektarni tashkil etadi va viloyat miqyosida lalmi yerlar ulushi 0,7 % ni, Qarshi shahri 31 gektarni tashkil etadi va viloyat miqyosida lalmi yerlar ulushi 0,12 % ni tashkil etadi. Viloyat lalmi yerlar taqsimlanishi bo‘yicha eng kichik hudud Mirishkor tumaniga to‘g‘ri keladi, 10 gektarni tashkil etadi va viloyat miqyosidagi ulushi 0.004 % ni tashkil etadi.

Ma’lumki, azaldan lalmikor maydonlarda boshqoli don ekinlari asosiy ekinlardan biri hisoblanib kelgan. 2021 yilda Qashqadaryo Viloyati bo‘yicha jami

63 000 gektar lalmi maydonga boshoqli don ekinlari yetishtirishda foydalanilgan bo'lsa, 2024 yilga kelib 60 000 gektarga yoki 4,7 foizga kamayganligini ko'rish mumkin. Hosildorlik esa 2021 yilda 7 sentnerni, yillik yog'in miqdori 234,0 mm.ni tashkil etgan bo'lsa, 2024 yilga kelib, yer maydoni garchi kamaygan bo'lsada hosildorlik 11,7 sentnerga yetganini, yillik yog'in miqdori esa 311,9 mm.ni tashkil etishi natijasida yoki hosildorlik 2021 yilga nisbatan 167,1 foizga oshishiga sabab bo'lgan.

Jumladan, 2021 yilda viloyatdagi lalmi yerlarning 31 600 gektariga bug'doy ekilgan bo'lsa, 2024 yilga kelib 35 072 gektarga ekilganini yoki 2021 yilga nisbatan 10 foizga ko'payganligini ko'rish mumkin. Hosildorlik esa 2021 yilda 8,1 sentnerni, yillik yog'in miqdori 234,0 mm.ni tashkil etgan bo'lsa, 2024 yilda miqdorining 309,1 mm.gallik yog'in miqdori 309,1 mm.ga etganligi sababli, hosildorlik 12,4 sentnerga etganligini yoki 153 foizga oshganligini ko'rsatmoqda. Natijada, yalpi hosil 2021 yilda 25 630 tonnani, 2024 yilda esa 44 006 tonna bug'doyni tashkil etgan. Yer maydonining ko'paytirilishi evaziga yalpi hosil miqdori 2021 yilga nisbatan 2024 yilda 171,9 foizga ko'payganligini ko'rsatmoqda.

Xulosa

Qashqadaryo viloyatida joylashgan lalmi yerlar qishloq xo'jaligining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Tadqiqot davomida yillar kesimida o'rganilgan statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, viloyatning ayrim tumanlarida lalmi yerlar maydoni barqaror saqlanib qolgan bo'lsa, boshqa hududlarda esa turli sabablar tufayli qisqarish yoki o'zgarish holatlari kuzatilgan. Bu holat agroiqlimiy sharoitlar, suv resurslariga bo'lgan ehtiyoj, yer degradatsiyasi va dehqonchilik faoliyatining intensivligiga bevosita bog'liqdir.

Lalmi yerlarning mavjud holatini chuqur tahlil qilish ularni samarali boshqarish, qishloq xo'jaligida resurslardan oqilona foydalanish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega. Mazkur tahlillar asosida, kelgusida lalmi yerlarning monitoringini takomillashtirish, ularni melioratsiya qilish va muhofaza qilish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi. 1998 yil 30 aprel. -74 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining №496-sonli Qarori: «O'zbekiston Respublikasida Yer monitoringini yuritish uslubi - Nizomini tasdiqlash to'g'risida». - Toshkent, 2000 yil 23 dekabr. – 4 b.
3. Qashqadaryo viloyatining statistik axborotnomasi 2024 y.
4. Rahmonov Q.R. Yer monitoringi / O'quv qo'llanma. - T., 2008. -155 b.
5. R.A.Turayev, G'.T.Parpiiev, Q.M.Hojiev. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar monitoringini yuritish metodologiyasi.-Toshkent: "Zilol buloq" nashriyoti, 52 b.
6. Turayev R.A., Davronov O.O', Sharopov R.N. Lalmi va yaylov yerlarida monitoring yuritish. Ilmiy-uslubiy qo'llanma-Toshkent: "Fan ziyosi" nashriyoti.

11.	Rahimov U.U. Qashqadaryo adirlari sharoitida ayrim cho‘l ozuqabop o‘simliklarining bioekologiyasi	311
12.	Botirov Z.L., Toirov I.J., Badalov S.M. Avtomobillarning atrof muhitga ta’siri va kamaytirish usullari	316
13.	Ravshanov H.A., Aliqulova S.M. O‘zbekistonda sabzavot ekinlarini yetishtirishning hozirgi holati	319
14.	Shog‘darov D.D., Bobojonov N.Sh. Qashqadaryo viloyatidagi lalmi yerlarning mavjud holati	323
15.	Bahromova D.A. Atrof muhit muhofazasida raqamli texnologiyalarning ahamiyati, qo‘llashdagi muammolar va yechimlar	328
16.	Bahromova D.A. Atrof-muhitni muhofaza qilishda yashil moliyalashtirish mexanizmlarining roli.	333
17.	Bo‘riyev O.O., Ibrohimov G‘.B., Hasanov H.A. Kimyo sanoati korxonalarining atrof-muhitga ta’siri	338
18.	Jonqobilov B.U. Choriyeva Z.A. Havoning ifloslanishi va uning natijaisida kelib chiqadigan salbiy oqibatlar	340
19.	Jonqobilov B.U., Sheraliyeva N. Fitonsid o'simliklarni o‘rni va ahamiyati	346
20.	Ibragimova N.E., Alimov Z.B. Markaziy Osiyoda PM2.5 Va TSP zarrachalarining kimyoviy tarkibi va sog‘liq uchun xavfini o‘rganish: Toshkent, Surxondaryo va Nukus misolida namunalar tahlili	349
21.	Safarov A.A. Neft-gaz sanoati korxonalarini ta’sirida degradatsiyaga uchragan tuproqlarning unumdorligini oshirish yo‘llari	355
22.	Rahimov U.U., Isomiddinova H.U., Ergashev H.S. Saksovul (<i>haloxylon</i>) o‘simliklarining cho‘l ekotizimlaridagi ahamiyati	358
23.	Qarshiboyeva Sh.G‘. Antropogen landshaftlarni tadqiq qilishning geoeologik tamoyillari va metodologiyasi	363
24.	Rahmonaliyeva D.R., Alimov Z. Toshkent shahrida atmosfera havosidagi PM2.5 va TSPning oksidlanish potentsiali va sog‘liq xavfini baholash	369
25.	Муратов Ш.О., Ражабова Д.А. Сущность и современное понимание явления метаморфизации природных вод	373
26.	Cho‘liyev I.N. Biologik membranalar turg‘unligining o‘zgarishiga Kraun-efirlarining ta’siri	375
27.	Nurillayev R.Y. Qoramolchilik fermalari sanitariya-gigiyena holatining sut sifatiga ta’siri	378
28.	Berdiyev D.F. Kartalarni geodezik va matematik asoslarini loyihalash.	381